ANDIJON VILOYATI BO‘STON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 5-noyabr | 370-1-19-Q/24 | Bo‘ston tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomga (ro‘yhat raqami 3163, 2019-yil 31-may) asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yhati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar *(Keyingi o‘rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi)* uchun ish o‘rinlarining eng kam

miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yhat bo‘yicha o‘rtacha **4168 nafar** ish o‘rnini tashkil etadi, band qilingan ish o‘rinlari soni **246 nafar 5,9 foiz** miqdorida,

shu jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 1,1 foiz (47 ish o‘rni);

(47 nafar yuqorida ko‘rsatilgan ish o‘rinlariga tumanda nogironligi bo‘lgan shaxslar ishga joylashish bo‘yicha talab 5 ta bo‘lganligi sababli, kelgusida 42 ta ish o‘rinni umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band etib qo‘yilsin.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 2,2 foiz (90 ta);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 2,0 foiz (84 ta);

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,3 foiz (12 ta);

pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 0,1 foiz (3 ta);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,1 foiz (4 ta);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabirlangan shaxslar uchun 0,1 foiz (3 ta);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 0,1 foiz (3 ta) miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘lig‘i holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabirlangan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

4. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, o‘t yoquvchi, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul, o‘qituvchi.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasidako‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

2025-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2025-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan

shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabulqilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (ro‘yxat raqami 3163, 2019-yil 31-may) asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lashni ta’minlansin.

8. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (F.Sobirov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab 1 oydan keyin kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 21-noyabr kungi 144-1-19-Q/23-sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Gaziyev zimmasiga yuklatilsin.

Bo‘ston tumani hokimi **S.A.NOSIROVA**

Bo‘ston tuman hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
370-1-19-Q/24-son qaroriga
1-ilova

№	Topshiriq berilgan korxona, tashkilot va muassasa nomi	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni		Shundan																			
					yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar		ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar		muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar		Nogironlar		Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar		jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar		Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabirlangan shaxslar		ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari		Shundan			
																							safarbarlik chaqiruvi zaxirasiga kiritilgan shaxslar	kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar	atrofdagilar uchun xavfli bo‘lmagan ijtimoiy ahamiyatli kasallik lar bilan og‘riyotgan shaxslar	Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar
			Soni	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**	**Soni**	**%**				
		4168	**246**	**5,9**	**84**	**2,0**	**90**	**2,2**	**12**	**0,3**	**47**	**1,1**	**3**	**0,1**	**4**	**0,1**	**3**	0,1	**3**	**0,1**	**2**	**0**	**0**	**1**
1	1-umum ta’lim maktabi	83	5	6,0	1	1,2	2	2,4	1	1,2	1	1,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
2	2-umum ta’lim maktabi	83	5	6,0	2	2,4	1	1,2	1	1,2	1	1,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
3	3-umum ta’lim maktabi	53	3	5,7	1	1,9	1	1,9	0	0,0	1	1,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
4	4-umum ta’lim maktabi	78	5	6,4	2	2,6	2	2,6	0	0,0	1	1,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0

5	5-umum ta’lim maktabi	30	2	6,7	0	0,0	1	3,3	0	0,0	1	3,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
6	52-IDUM	24	1	4,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	4,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
7	7-umum ta’lim maktabi	56	3	5,4	1	1,8	1	1,8	0	0,0	1	1,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
8	8-umum ta’lim maktabi	41	2	4,9	0	0,0	1	2,4	0	0,0	1	2,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
9	9-umum ta’lim maktabi	45	3	6,7	1	2,2	1	2,2	0	0,0	1	2,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
10	10-umum ta’lim maktabi	48	3	6,3	1	2,1	1	2,1	0	0,0	1	2,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
11	11-umum ta’lim maktabi	53	3	5,7	1	1,9	0	0,0	1	1,9	1	1,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
12	12-umum ta’lim maktabi	44	3	6,8	1	2,3	1	2,3	0	0,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
13	13-umum ta’lim maktabi	60	4	6,7	2	3,3	1	1,7	0	0,0	1	1,7	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
14	14-umum ta’lim maktabi	60	4	6,7	2	3,3	1	1,7	0	0,0	1	1,7	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
15	15-umum ta’lim maktabi	49	3	6,1	1	2,0	1	2,0	0	0,0	1	2,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
16	16-umum ta’lim maktabi	44	3	6,8	1	2,3	1	2,3	0	0,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
17	17-umum ta’lim maktabi	33	2	6,1	0	0,0	1	3,0	0	0,0	1	3,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
18	18-umum ta’lim maktabi	41	3	7,3	1	2,4	1	2,4	0	0,0	1	2,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
19	19-umum ta’lim maktabi	32	2	6,3	0	0,0	1	3,1	0	0,0	1	3,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0

20	20-umum ta’lim maktabi	32	2	6,3	0	0,0	1	3,1	0	0,0	1	3,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
21	21-umum ta’lim maktabi	33	2	6,1	0	0,0	1	3,0	0	0,0	1	3,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
22	61-IDUM	73	5	6,8	1	1,4	2	2,7	1	1,4	1	1,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
23	23-umum ta’lim maktabi	43	3	7,0	1	2,3	1	2,3	0	0,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
24	24-umum ta’lim maktabi	40	2	5,0	0	0,0	1	2,5	0	0,0	1	2,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
25	25-umum ta’lim maktabi	36	2	5,6	0	0,0	1	2,8	0	0,0	1	2,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
26	26-umum ta’lim maktabi	22	1	4,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	4,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
27	26-BTM	39	2	5,1	0	0,0	1	2,6	0	0,0	1	2,6	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
28	48-DIMI	69	4	5,8	1	1,4	1	1,4	1	1,4	1	1,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
29	BABM	58	3	5,2	1	1,7	1	1,7	0	0,0	1	1,7	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
30	**Maktab va maktabgacha ta’limmi tashkiloti**	52	3	5,8	0	0,0	1	1,9	1	1,9	1	1,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
31	**"15 SON BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI"**	41	2	4,9	1	2,4	0	0,0	0	0,0	1	2,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
32	1-MTT	34	2	5,9	1	2,9	1	2,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
33	2-MTT	24	1	4,2	0	0,0	1	4,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
34	3-MTT	23	1	4,3	0	0,0	1	4,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0

35	4-MTT	32	2	6,3	1	3,1	1	3,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
36	6-MTT	24	1	4,2	0	0,0	1	4,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
37	7-MTT	32	2	6,3	1	3,1	1	3,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
38	8-MTT	35	2	5,7	1	2,9	1	2,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
39	9-MTT	30	2	6,7	1	3,3	1	3,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
40	10-MTT	33	2	6,1	1	3,0	1	3,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
41	11-MTT	25	1	4,0	0	0,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
42	12-MTT	30	2	6,7	1	3,3	1	3,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
43	13-MTT	27	2	7,4	1	3,7	1	3,7	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
44	14-MTT	21	1	4,8	0	0,0	1	4,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
45	15-MTT	32	2	6,3	1	3,1	1	3,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
46	16-MTT	30	2	6,7	1	3,3	1	3,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
47	17-MTT	22	1	4,5	0	0,0	1	4,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
48	18-MTT	30	2	6,7	1	3,3	1	3,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
49	21-MTT	31	2	6,5	1	3,2	1	3,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0

50	22-MTT	28	2	7,1	1	3,6	1	3,6	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
51	24-MTT	26	2	7,7	1	3,8	1	3,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
52	25 -MTT	35	2	5,7	1	2,9	1	2,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
53	26-MTT	39	2	5,1	1	2,6	1	2,6	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
54	27-MTT	29	2	6,9	1	3,4	1	3,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
55	28-MTT	29	2	6,9	1	3,4	1	3,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
56	29-MTT	22	1	4,5	0	0,0	1	4,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
57	"OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	165	10	6,1	2	1,2	2	1,2	0	0,0	1	0,6	2	1,2	1	0,6	1	0,6	1	0,6	1	0	0	0
58	"BO`STON TUMAN SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK MARKAZ	38	2	5,3	1	2,6	1	2,6	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
59	"BO'Z TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI"	22	1	4,5	0	0,0	1	4,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
60	BUZ TUMAN YUL XUJALIGI PUD.TFK	62	4	6,5	1	1,6	1	1,6	0	0,0	1	1,6	0	0,0	1	1,6	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
61	BUZ TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI	1199	71	5,9	30	2,5	20	1,7	4	0,3	11	0,9	1	0,1	2	0,2	1	0,1	2	0,2	1	0	0	1
62	"BO'STON TUMANI KASB-XUNAR MAKTABI"	60	4	6,7	2	3,3	2	3,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0
63	"BO'STON ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI	49	3	6,1	1	2,0	1	2,0	1	2,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0	0	0

64	"SAYYORA FAVVORASI" MCHJ	355	18	5,1	6	1,7	7	2,0	1	0,3	3	0,8	0	0,0	0	0,0	1	0,3	0	0,0	0	0	0	0